QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo‘l ko‘chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2023 - yil 4 - fevral 29-4-62-Q/23 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumani hokimining eskirgan va ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6075-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-sonli Farmoni inobatga olinsin va ijroga qaratilsin.

2. Tuman hokimi tomonidan qabul qilinib, hozirgi paytda eskirgan va ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (Q.Oqilov) ushbu qaror rasmiy e’lon qilingach hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilinganidan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kitob tuman hokimi **Pardayev U.B**

Kitob tuman hokimining
2023 yil 4 fevraldagi
29-4-62-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Kitob tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Kitob tuman hokimining “Tumandagi dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2015-yil 22-sentabrdagi X-1139/9-son qarori.

2. Kitob tuman hokimining “Kitob tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 2020-yil 28-iyuldagi X-872/07-son qarori.

Kitob tuman hokimining
2023 yil 4 fevraldagi
29-4-62-Q/23-son qaroriga
2-ilova

XUQUQIY XULOSA

Kitob tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida qaror loyixasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmoni bilan “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi buyicha qaror loyixasi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida qaror loyixasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilik texnikasi qoidalariga to‘liq javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan Kitob tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida qaror loyixasi 2023-yil 16-yanvar kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan (ID № 75217), interaktiv portalda muxokoma muddati tugashi sababli xuquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun yuborilmoqda.

Kitob tuman hokimligi Bosh yuriskonsulti,
2-chi darajali Adliya maslahatchisi **Sh.Eshniyazov.**